



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH
DAVLAT INSPEKSIYASI**

**STATE INSPECTORATE FOR SUPERVISION OF QUALITY IN EDUCATION
UNDER THE CABINET OF MINISTERS REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100115, Toshkent shahri, Nurxon ko'chasi, 21-uy, tel.: (99871) 231-07-53,
www.tdi.uz, el. pochta: info@tdi.uz, tdi@exat.uz

2021-yil 8 - oktyabr 01-485-son

**Vazirlik va idoralarga
(ro'yxat bo'yicha)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori (keyingi o'rinlarda-Qaror)ning **5-bandida** "Tizimida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga:

bo'ysunuvidagi ta'lim tashkilotlari tomonidan navbatdagi attestatsiyadan o'tadigan hamda navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tish xohishini bildirgan pedagog kadrlarning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi baholanishini tashkil etish hamda baholash natijalari yuzasidan ma'lumotnomaning pedagog kadrlarga o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

attestatsiyadan o'tganiga besh yil to'lgan va besh yil davomida amaldagi malaka toifasini (lavozimini) himoya qilmagan yoki malakasini oshirmagan pedagog kadrlarni navbatdagi attestatsiyaga o'z vaqtida jalb etish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, mazkur qaror bilan tasdiqlangan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom" (keyingi o'rinlarda-Nizom)ning **12-bandida** "Ta'lim tashkilotlari rahbarlari:

navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tish muddati tugashidan olti oy oldin pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi;

pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtirishi hamda attestatsiyadan o'tish uchun hujjat topshirish boshlangunga qadar ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholashni tashkil etishi lozim"ligi belgilab qo'yilgan.

Sizdan, vazirlik (idora) tasarrufidagi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional, o'rta professional, o'rta maxsus professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarida yuqorida qayd etilgan vazifalarning belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlanishini nazoratga olishingizni so'rayman.

**Ta'lim inspeksiyasi
boshlig'i**

U. Tashkenbaev